

## VALSARTAN VA KOENZIM Q10 ASOSIDAGI «COVALIS» KAPSULALARINING SIFAT KO'RSATKICHLARINI ANIQLASH

F.X.Maksudova

N.M.Vaxidova

Z.B.Baxtiyorova

**Toshkent farmasevtika instituti, Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi**

**e-mail: dr.vaxidovanm@mail.ru, tel: (90)986-96-33**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.21717466>**

**Dolzarbligi.** Arterial gipertenziya va yurak-qon tomir kasalliklari butun dunyoda nogironlik va o'limning asosiy sabablaridan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu kasalliklarni davolashda antigipertenziv ta'sir bilan bir qatorda oksidlovchi stressni kamaytirish va miokardning funksional holatini yaxshilashga qaratilgan kompleks yondashuv muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, valsartan va koenzim Q10 kombinatsiyasi antigipertenziv, kardioprotektor hamda antioksidant ta'sirlarni birlashtirgan istiqbolli dori vositasi hisoblanadi. Mazkur kombinatsiya asosida yaratilgan «CoValis» kapsulalarining farmakopeya talablariga muvofiq sifat ko'rsatkichlarini baholash, ularning barqarorligi, xavfsizligi va samaradorligini ta'minlash zamonaviy farmasevtik texnologiya va dori vositalari sifat nazoratining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Valsartan va koenzim Q10 kombinatsiyasi asosida yaratilgan «CoValis» kapsulalarining asosiy sifat ko'rsatkichlarini aniqlash, ularni O'zbekiston Respublikasi Davlat farmakopeyasi va amaldagi me'yoriy hujjatlar talablari asosida baholash hamda dori vositasining sifat, xavfsizlik va farmakopeya talablariga muvofiqligini asoslashdan iborat.

**Usul va uslublar.** «CoValis» kapsulalarining sifat ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Davlat farmakopeyasi I nashri talablari asosida baholandi. Tadqiqotlar davomida kapsulalarning tashqi ko'rinishi, chinligi, o'rtacha massasi, nkapsulalangan massaning o'rtacha og'irligi, parchalanishi, dozalanish bir xilligi va mikrobiologik tozaligi aniqlandi. Kapsulalarning mikrobiologik tozaligi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi «Farmasevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi» davlat muassasasi ilmiy-tadqiqot bo'limi mutaxassislari ishtirokida baholandi.

**Natijalar.** Tadqiqotlar natijasida «CoValis» kapsulalari ko'k rangli qattiq jelatin kapsula bo'lib, ichida sariq rangli pelletlarni saqlashi aniqlandi. Chinlik sinovida tekshiriluvchi va standart eritmalar xromatogrammalaridagi valsartan hamda koenzim Q10 cho'qqilarining ushlanish vaqtlari, shuningdek UB-spektrlarining (230–360 nm) maksimum va minimum nuqtalari o'zaro mos keldi. Kapsulaning o'rtacha massasi 0,419 g (chetlanish +1,9%), kapsula to'ldirilgan massasining o'rtacha og'irligi 0,315 g (chetlanish +2,6%) bo'lib, farmakopeya talablariga javob berdi. Kapsulalar 12 daqiqa 35 soniyada to'liq parchalandi (me'yor - 20 daqiqadan oshmasligi kerak). Mikrobiologik tozalik ko'rsatkichlari bo'yicha umumiy aerob mikroorganizmlar soni 1000 CFU/g dan oshmadi, achitqi va mog'or zamburug'lari soni 100 CFU/g dan yuqori emasligi, Escherichia coli aniqlanmaganligi qayd etildi. Dozalanishning bir xilligi ko'rsatkichi  $AV = 5,12$  ni tashkil etib, amaldagi farmakopeya talablariga muvofiq ekanligi tasdiqlandi.

**Xulosalar.** O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida valsartan va koenzim Q10 asosida yaratilgan «CoValis» kapsulalarining asosiy sifat ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Davlat

farmakopeyasi I nashri talablariga to'liq muvofiq ekanligi aniqlandi. Olingan natijalar «CoValis» kapsulalarining sifat va miqdor ko'rsatkichlari amaldagi farmakopeya talablariga javob berishini tasdiqladi hamda ularni keyingi doklinik va klinik tadqiqotlar uchun tavsiya etish imkonini berdi.

